YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH: HUQUQIY VA IJTIMOIY PROFILAKTIKA MEXANIZMLARI

Sulaymonov Bekzod Dilmurodjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

E-mail: sulaymonovbekzod02@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishning huquqiy hamda ijtimoiy profilaktika mexanizmlari tahlil etiladi. Muallif voyaga yetmaganlar va yoshlar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari, ularga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy va axloqiy omillarni yoritadi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, profilaktika sub’ektlari faoliyati va ularning o‘zaro hamkorligi o‘rganiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida yoshlar o‘rtasida huquqiy ongni oshirish, oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish hamda profilaktika tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, profilaktika, huquqiy mexanizmlar, ijtimoiy profilaktika, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, voyaga yetmaganlar, oila, mahalla, profilaktik hamkorlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые и социальные механизмы профилактики правонарушений и преступности среди молодёжи. Автор анализирует причины возникновения преступности среди несовершеннолетних и молодых людей, а также социально-экономические, семейные и нравственные факторы, влияющие на неё. Изучаются действующее законодательство Республики Узбекистан, деятельность субъектов профилактики и их взаимодействие. Кроме того, анализируется опыт зарубежных стран и выявляются существующие проблемы. По результатам исследования разработаны предложения по повышению правовой культуры молодёжи, укреплению сотрудничества семьи, махалли и образовательных учреждений, а также по совершенствованию системы профилактики.

Ключевые слова: молодежь, правонарушения, преступность, профилактика, правовые механизмы, социальная профилактика, правосознание, правовая культура, несовершеннолетние, семья, махалла, профилактическое сотрудничество.

Abstract. This article examines the legal and social mechanisms for preventing offenses and crime among young people. The author analyzes the causes of juvenile and youth delinquency, as well as the socio-economic, family-related, and moral factors influencing it. The study explores the current legislation of the Republic of Uzbekistan, the activities of crime prevention entities, and their interaction. Furthermore, the experience of foreign countries is reviewed and existing problems are identified. Based on the research findings, proposals are developed to raise legal awareness among young people, strengthen cooperation between families, neighbourhoods, and educational institutions, and improve the prevention system.

Keywords: youth, offenses, crime, prevention, legal mechanisms, social prevention, legal awareness, legal culture, juveniles, family, neighbourhood, preventive cooperation.

Kirish

Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish jamiyatning barqaror rivojlanishi, jamoat xavfsizligi va yosh avlodning ijtimoiy kamol topishini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlar huquqbuzarligi faqat huquqiy me’yorlarning buzilishi emas, balki oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ta’lim-tarbiya jarayoni va shaxsning psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq ko‘p qirrali ijtimoiy hodisadir. Shu sababli uni faqat jazo choralari orqali bartaraf etish mumkin emas, uning oldini olish huquqiy, ijtimoiy, pedagogik va psixologik mexanizmlarning tizimli hamkorligini talab etadi[1].

O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishning normativ-huquqiy asoslari shakllantirilgan. 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun profilaktikaning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik turlarini belgilab, aholining huquqiy bilimlarini oshirish hamda huquqbuzarlik sabablarini aniqlash va bartaraf etishni profilaktikaning asosiy chora-tadbirlari sifatida

[1]Qarshiyev G‘.S. Yoshlar o‘rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini tashkil etish // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – Toshkent, 2025. – № 2 (65). – B. 105.

mustahkamlagan[2]. Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-son “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun muhim o‘rin tutadi. U ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyani tashkil etishni nazarda tutadi. Mahalla darajasida esa 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son Vazirlar Mahkamasi qarori profilaktika sub’ektlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlaydi[3]. Xalqaro darajada BMTning Riyod yo‘riqnomalari profilaktikani davlat idoralari, ta’lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligiga asoslash zarurligini ta’kidlaydi[4]. Shunga qaramay, normativ bazaning mavjudligi profilaktika faoliyatining amaldagi samaradorligini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi. Amaliyotda profilaktika ko‘pincha huquqiy targ‘ibot va huquqbuzarlik sodir etilganidan keyingi choralar bilan cheklanadi. Xavf omillarini erta aniqlash, individual yondashuvni qo‘llash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va huquqbuzarlik sodir etgan yoshlarni jamiyatga qayta moslashtirish mexanizmlari esa yetarlicha rivojlanmagan. Bundan tashqari, profilaktika samaradorligi asosan o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan baholanadi, bu esa uning haqiqiy natijalarini, ya’ni qancha yoshning huquqbuzarlik yo‘liga kirishining oldi olingani va ularga o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratilganini to‘liq aks ettirmaydi. Mavzuning dolzarbligi ana shu holatlar bilan belgilanadi. Bir tomondan, qonunchilikda profilaktika sub’ektlari va ularning vakolatlari aniqlangan. Boshqa tomondan, oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligini amaliyotda yagona tizimga birlashtirish, xalqaro tajribaning samarali jihatlarini milliy huquqiy tizim va ijtimoiy xususiyatlarga moslashtirish hamda profilaktika natijalarini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish masalalari ochiq qolmoqda.

[2]O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni, 22–23-moddalar. – https://lex.uz/uz/acts/-2387357

[3]O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-son qonuni. – https://lex.uz/uz/docs/-1685726; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qarori. – https://lex.uz/uz/acts/-7243832

[4]United Nations Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (The Riyadh Guidelines). Resolution A/RES/45/112, 14 December 1990. – https://www.refworld.org/legal/resolution/unga/1990/en/42900

Qayd etish joizki, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasining alohida jihatlari, xususan, umumiy profilaktikani tashkil etish, yoshlarning huquqiy savodxonligini shakllantirish, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining huquqiy va psixologik asoslari hamda ularning huquqbuzarlikdan jabrlanish omillari mintaqa olimlari tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan. Shunga qaramasdan, mazkur yo‘nalishlar ko‘pincha bir-biridan ajratilgan holda o‘rganilib, oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligiga asoslangan yagona profilaktika tizimi sifatida yetarlicha tahlil qilinmagan. Shuningdek, xalqaro hujjatlar va xorijiy tajribaning milliy qonunchilik hamda mahalla instituti sharoitida qo‘llanish imkoniyatlari, profilaktika samaradorligini baholash mezonlari ham alohida ilmiy muhokama predmetiga aylanmagan. Biz yoshlar huquqbuzarligi sabablarini, amaldagi qonunchilikni va xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish natijalariga asoslanib, profilaktika faoliyatini faqat huquqiy targ‘ibot va huquqbuzarlikdan keyingi choralar bilan cheklamasdan, xavf omillarini erta aniqlash, individual yondashuv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va qayta moslashtirishni o‘z ichiga olgan tizim sifatida qarash lozim, degan xulosaga keldik. Mazkur maqolada yoshlar huquqbuzarligini keltirib chiqaruvchi omillar, profilaktikaning milliy huquqiy asoslari va sub’ektlari faoliyati, xalqaro tajribaning samarali jihatlari yoritiladi hamda profilaktika samaradorligini ta’limga qaytgan, bandligi ta’minlangan va takroriy huquqbuzarlikdan tiyilgan yoshlar ko‘rsatkichlari asosida baholash bo‘yicha takliflar nazariy jihatdan asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish masalasi huquqshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlarining kesishmasida o‘rganiladi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda to‘rt yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish umumiy profilaktikani tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Qarshiyev G‘olib Sobirovich yoshlarni qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish umumiy profilaktikaning asosiy yo‘nalishi ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, muallif huquqbuzarlik sabablarini va ularga imkon

beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish hamda bartaraf etish zarurligini qayd etadi[5]. Ikkinchi yo‘nalish individual yondashuv va jabrlanish omillarini o‘rganishga qaratilgan. O‘ktamova Sh.O. voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining huquqiy va psixologik asoslarini tahlil qilib, xulq-atvorning shakllanishida shaxsiy xususiyatlar, noqulay vaziyatlar va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’sirini hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi[6]. Shodmonov Ubaydulloxon To‘raxo‘jayevich esa voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikdan jabrlanishiga sabab bo‘luvchi omillarni o‘rganish profilaktika faoliyatini kengroq tashkil etish imkonini berishini asoslaydi[7].Demak, profilaktika nafaqat huquqbuzarlik sodir etishning oldini olishni, balki yoshlarni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ham qamrab olishi lozim.

Uchinchi yo‘nalish oila, mahalla va ta’lim muassasalarining roliga bag‘ishlangan. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi Abdurahimov Ravshanbek oila va mahalla institutlarida huquqiy ong hamda milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash yo‘llarini yoritib, ushbu institutlarning tarbiyaviy vazifalari va o‘zaro hamkorligini muhim omil sifatida ko‘rsatadi[8]. Qodirova Nigora Shaydullayevna esa yoshlarning huquqiy savodxonligini shakllantirishda ularning huquq va majburiyatlarini anglashini kuchaytirish, huquqiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash va turli tashkilotlar hamkorligini rivojlantirishga e’tibor qaratadi[9].

To‘rtinchi yo‘nalish normativ-huquqiy va xalqaro hujjatlarni qamrab oladi. 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son Qonun profilaktikaning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik turlarini belgilaydi; uning 22–23-moddalarida umumiy profilaktikaning

[5] Qarshiyev G‘.S. Yoshlar o‘rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini tashkil etish // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – Toshkent, 2025. – № 2 (65). – B. 107.

[6] O‘ktamova Sh.O. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining huquqiy va psixologik asoslari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 3. – B. 158.

[7] Shodmonov U.T. Voyaga yetmaganlarni huquqbuzarlikdan jabrlanishi omillarining ilmiy tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – Vol. 2, Issue 3. – B. 730.

[8] Abdurahimov R.O‘. Oila va mahalla institutlarida huquqiy ong va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash yo‘llari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2026. – Vol. 6, Issue 3. – B. 198.

[9] Qodirova N.Sh. Yoshlar huquqiy savodxonligini shakllantirish jarayonlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – B. 962-963.

mazmuni va chora-tadbirlari, jumladan aholining huquqiy bilimlarini oshirish va huquqbuzarlik sabablarini bartaraf etish ko‘zda tutilgan. 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-son Qonun esa voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyani tashkil etishga yo‘naltirilgan[10]. Mahalla darajasida 801-son hukumat qarori bilan tasdiqlangan nizom mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va ijtimoiy xodim hamkorligini nazarda tutadi[11]. Xalqaro darajada Riyod yo‘riqnomalari profilaktikani davlat idoralari, ta’lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligiga asoslashni talab qiladi. BMT bolalar adliyasiga oid tavsiyalarida esa bolaning manfaatlarini ustuvor hisobga olish, tiklovchi va tarbiyaviy yondashuvlardan foydalanish hamda ozodlikdan mahrum etishni eng so‘nggi chora sifatida qo‘llash qayd etiladi[12]. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda profilaktikaning alohida jihatlari, ya’ni umumiy profilaktika, huquqiy savodxonlik, oila va mahalla roli, jabrlanish omillari yetarlicha yoritilgan. Biroq bu yo‘nalishlarni yagona tizim doirasida ko‘rib chiqish, xalqaro tajribani milliy qonunchilik bilan qiyosan o‘rganish hamda profilaktika samaradorligini baholash mezonlarini asoslash masalalari alohida tadqiqot predmeti bo‘lmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy bilishning umumiy va xususiy metodlari tashkil etadi. Normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini aniqlashda formal-yuridik (huquqiy) metod qo‘llanildi: O‘RQ-371 va O‘RQ-263-son qonunlar hamda 801-son qaror normalari mazmuni, profilaktika sub’ektlarining vakolatlari va o‘zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida milliy qonunchilik BMTning Riyod yo‘riqnomalari va bolalar adliyasiga oid xalqaro tavsiyalar bilan taqqoslandi, xorijiy tajribaning milliy sharoitga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan jihatlari aniqlandi. Tizimli

[10] O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son Qonuni, 22–23-moddalar. – https://lex.uz/uz/acts/-2387357; 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-son Qonuni. – https://lex.uz/uz/docs/-1685726

[11] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qarori. – https://lex.uz/uz/acts/-7243832

[12] United Nations Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (The Riyadh Guidelines). Resolution A/RES/45/112, 14 December 1990. – https://www.refworld.org/legal/resolution/unga/1990/en/42900

yondashuv yoshlar huquqbuzarligini oilaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va psixologik omillarning o‘zaro bog‘liqligida o‘rganish imkonini berdi. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganishda tahlil va sintez, mantiqiy umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Takliflarni ishlab chiqishda esa tavsifiy va mantiqiy-asoslash usullari qo‘llanildi.

Qayd etish joizki, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik profilaktikasining alohida jihatlari, xususan, umumiy profilaktikani tashkil etish, yoshlarning huquqiy savodxonligini shakllantirish, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining huquqiy va psixologik asoslari hamda ularning huquqbuzarlikdan jabrlanish omillari mintaqa olimlari tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan. Shunga qaramasdan, mazkur yo‘nalishlar ko‘pincha bir-biridan ajratilgan holda o‘rganilib, oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligiga asoslangan yagona profilaktika tizimi sifatida yetarlicha tahlil qilinmagan. Shuningdek, xalqaro hujjatlar va xorijiy tajribaning milliy qonunchilik hamda mahalla instituti sharoitida qo‘llanish imkoniyatlari, profilaktika samaradorligini baholash mezonlari ham alohida ilmiy muhokama predmetiga aylanmagan. Biz yoshlar huquqbuzarligi sabablarini, amaldagi qonunchilikni va xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish natijalariga asoslanib, profilaktika faoliyatini faqat huquqiy targ‘ibot va huquqbuzarlikdan keyingi choralar bilan cheklamasdan, xavf omillarini erta aniqlash, individual yondashuv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va qayta moslashtirishni o‘z ichiga olgan tizim sifatida qarash lozim, degan xulosaga keldik. Mazkur maqolada yoshlar huquqbuzarligini keltirib chiqaruvchi omillar, profilaktikaning milliy huquqiy asoslari va sub’ektlari faoliyati, xalqaro tajribaning samarali jihatlari yoritiladi hamda profilaktika samaradorligini ta’limga qaytgan, bandligi ta’minlangan va takroriy huquqbuzarlikdan tiyilgan yoshlar ko‘rsatkichlari asosida baholash bo‘yicha takliflar nazariy jihatdan asoslanadi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, birinchidan, yoshlar huquqbuzarligi bir omilli emas, oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ta’lim-tarbiya jarayoni va shaxsning psixologik xususiyatlarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shu sababli oilaviy

sharoitni huquqbuzarlikning muqarrar sababi deb baholash asossizdir: u boshqa omillar bilan qo‘shilgandagina xavfni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, milliy qonunchilik profilaktikaning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik turlarini mustahkamlagan, mahalla darajasida esa profilaktika sub’ektlarining hamkorligi belgilangan[13]. Biroq amaliyotda faoliyat asosan huquqiy targ‘ibot va huquqbuzarlikdan keyingi choralar bilan cheklanmoqda.

Uchinchidan, xalqaro hujjatlar profilaktikani oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilik hamkorligiga asoslashni hamda ozodlikdan mahrum etishni so‘nggi chora sifatida qo‘llashni talab qiladi[14].

To‘rtinchidan, profilaktika samaradorligini oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi: profilaktika sub’ektlari faoliyatini yagona amaliy reja asosida muvofiqlashtirish, darslarni muntazam qoldirish, oilaviy nizolar kabi xavf omillarini jazolash uchun emas, yordam ko‘rsatish signali sifatida erta aniqlash, hududlarda xavf omillariga asoslangan dasturlar ishlab chiqish, samaradorlikni o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, ta’limga qaytgan, bandligi ta’minlangan va takroriy huquqbuzarlikdan tiyilgan yoshlar ko‘rsatkichlari bilan baholash.

Muhokama

Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda faqat huquqiy targ‘ibotga va huquqbuzarlikdan keyingi choralarga tayanish, xavf omillarini erta aniqlash hamda individual yondashuv bilan bog‘liq mavjud mexanizmlarning yetarli emasligi profilaktika tizimini amaliy ehtiyojlarga muvofiq takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Yoshlar huquqbuzarligi oilaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va psixologik omillarning o‘zaro ta’siri bilan tavsiflangan murakkab muammo bo‘lib, uni hal etishda profilaktika sub’ektlari, oila, ta’lim muassasalari va mahalla institutining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, profilaktika

[13] O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni; Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qarori. – https://lex.uz/uz/acts/-2387357; https://lex.uz/uz/acts/-7243832

[14] United Nations Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (The Riyadh Guidelines). Resolution A/RES/45/112, 14 December 1990. – https://www.refworld.org/legal/resolution/unga/1990/en/42900

sub’ektlari faoliyatini yagona amaliy reja asosida muvofiqlashtirish, xorijiy tajribaning samarali jihatlarini milliy sharoitga moslashtirish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilgan holda muammolarni barvaqt aniqlash hamda profilaktika samaradorligini yakuniy natijalar, ya’ni ta’limga qaytgan, bandligi ta’minlangan va takroriy huquqbuzarlikdan tiyilgan yoshlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash mexanizmini rivojlantirish yoshlar huquqbuzarligining oldini olishning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarlik va jinoyatchilik faqat huquqiy me’yorlarning buzilishi emas, oilaviy muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ta’lim-tarbiya jarayoni va shaxsning psixologik xususiyatlarining o‘zaro ta’sirida shakllanadigan ko‘p qirrali ijtimoiy hodisadir. Oilaviy muammolar huquqbuzarlikning muqarrar sababi emas, ular boshqa omillar bilan qo‘shilgandagina xavfni kuchaytiradi. Shu sababli profilaktikada oilalarni ayblash emas, ularga pedagogik, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish ustuvor bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi profilaktikaning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik turlarini mustahkamlab, uning normativ-huquqiy asoslarini yaratgan. 2010-yildagi O‘RQ-263-son va 2014-yildagi O‘RQ-371-son qonunlar hamda 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qaror profilaktika sub’ektlarining vakolatlari va hamkorligini belgilaydi. Biroq amaliyotda faoliyat asosan huquqiy targ‘ibot va huquqbuzarlik sodir etilganidan keyingi choralar bilan cheklanmoqda, xavf omillarini erta aniqlash, individual yondashuv va qayta moslashtirish mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan.

Uchinchidan, BMTning Riyod yo‘riqnomalari va bolalar adliyasiga oid tavsiyalari profilaktikani davlat idoralari, ta’lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligiga asoslashni, bolaning manfaatlarini ustuvor hisobga olishni va ozodlikdan mahrum etishni so‘nggi chora sifatida qo‘llashni nazarda tutadi. Bu tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, milliy qonunchilik va mahalla instituti xususiyatlariga moslashtirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, profilaktika samaradorligini o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, ta’limga qaytgan, bandligi ta’minlangan va takroriy huquqbuzarlikdan tiyilgan yoshlar ko‘rsatkichlari bilan baholash zarur. Shuningdek, profilaktika sub’ektlari faoliyatini yagona amaliy reja asosida muvofiqlashtirish, ma’lumot almashishni shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish talablariga muvofiq amalga oshirish lozim.

Qonunchilikni takomillashtirish borasida quyidagi taklifni ilgari surishni joiz deb topdik:

Taklif. Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini natijaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash tartibini belgilash.

O‘zgartirish kiritilishi taklif etilayotgan hujjat: 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 22–23-moddalari.

Taklif mazmuni. Qonunga profilaktika samaradorligi ta’limga qaytgan, bandligi ta’minlangan, ijtimoiy yordam olgan va takroriy huquqbuzarlikdan tiyilgan yoshlar ko‘rsatkichlari asosida baholanishini, shuningdek hududiy profilaktika dasturlari xavf omillariga tayangan holda ishlab chiqilishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha qism kiritish taklif etiladi.

Ilmiy-huquqiy asos. Amaldagi qonun umumiy profilaktikaning mazmuni va chora-tadbirlarini belgilaydi, biroq natijalarni baholash mezonlari aniq ko‘rsatilmagan. Taklif etilayotgan norma profilaktikani formal tadbirlardan haqiqiy natijaga yo‘naltiradi va yoshlarning huquqlarini himoya qilish uchun qo‘shimcha kafolat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurahimov R.O‘. Oila va mahalla institutlarida huquqiy ong va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash yo‘llari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2026. – Vol. 6, Issue 3. – B. 195–200.

2. O‘ktamova Sh.O. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining huquqiy va psixologik asoslari // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 3. – B. 155–160.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-son qonuni. – https://lex.uz/uz/docs/-1685726

4. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni. – 22–23-moddalar. – https://lex.uz/uz/acts/-2387357

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qarori. – https://lex.uz/uz/acts/-7243832

6. Qarshiyev G‘.S. Yoshlar o‘rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini tashkil etish // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – Toshkent, 2025. – № 2 (65). – B. 104–108.

7. Qodirova N.Sh. Yoshlar huquqiy savodxonligini shakllantirish jarayonlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – B. 961–966.

8. Shodmonov U.T. Voyaga yetmaganlarni huquqbuzarlikdan jabrlanishi omillarining ilmiy tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – Vol. 2, Issue 3. – B. 727–732.

9. United Nations. Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (The Riyadh Guidelines). Resolution A/RES/45/112, 14 December 1990. – https://www.refworld.org/legal/resolution/unga/1990/en/42900